NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI

Otayor Usmonaliyev
Namangan muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14192010

Annotatsiya. *Maqolada Namangan viloyatida turizmni rivojlantirish, bu borada amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar samarasi, viloyatda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha yaratilayotgan shart-sharoitlar, turizm strategiyasini shakllantirish va uni amalga oshirishda hududlarning turistik salohiyatiga baho berish, viloyatda istiqbolda turizm sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida fikr-mulohazalar bayon qilingan.*
Kalit so'zlar: *davlat, turizm, imkoniyat, omillar, iqtisodiy resurslar, turistik firmalar, foyda.*

Respyblikamizning geografik o'pni, qulay tabiiy-iqlim shapoitiga egaligi, betakror, ajoyib tapixiy yodgopliklari, mevalapi, milliy taomlari, an'ana va upf-odatlari tupizm sohasida juda katta imkoniyatlap mavjudligini namoyon qiladi. Mamlaktimizda turizm sohasini pivojlantirishda mavjud siyosiy bapqarorlik ham myhim o'rin egallaydi. Keyingi yillarda O'zbekistonda, xususan viloyatlarda va chekka qishloqlarda turizmni rivojlantirish borasida bir qator Qaror va Farmonlar kuchga kirdiki, bu qabul qilingan me'yoriy hujjatlar sohani barqaror rivojlantirishning mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar bevosita davlat tomonidan belgilangan bo'lib, juda ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish, xorijiy hamkorlar bilan turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha xalqaro shartnomalar va kelishuvlar imzolanmoqda.

Mamlakatimiz juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros ob'ektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar - "Xiva shahridagi Ichan-qal'a", "Buxoro shahrining tarixiy markazi", "Shahrisabz shahrining tarixiy markazi", "Samarqand shahri" hududida joylashgan bo'lib, YuNYeSKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida "Nyatt Regency Tashkent" va "Lotte City Notel Tashkent Palace" brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishi, "Angren-Pop" temir yo'li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochilishini aytib o'tish joiz [1].

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

2022-yilda O'zbekistonga kirib kelgan xorijiy davlat fuqarolarining safar maqsadlarini tahlil qilinadigan bo'lsa, ularning aksariyati yaqin qarindoshlarini yo'qlash deb belgilangan (89,0 %). Shuningdek, o'qish uchun (0,2 %), davolanish uchun (1,3 %), xizmat safari uchun (1,6 %),

bo‘sh vaqt va dam olish uchun (7,5 %), tijorat maqsadida kelganlar (0,4 %) ham mavjud. Raqamlardan ko‘rinib turibdiki, aksariyat xorijiy davlatlar fuqarolari O‘zbekistonga yaqin qarindoshlarini yo‘qlash maqsadida tashrif buyurmoqda [2].

Tashrif buyuruvchilarning diqqat-markazida bo‘lish, ularni ko‘proq jalb qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining turizm sohasini rivojlantirishga oid bir qator qarorlari va farmonlari ijrosini ta’minlash yuzasidan Namangan viloyati turizm boshqarmasi tomonidan ham viloyatda ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida Namangan viloyatiga 569,9 ming (yillik rejaga nisbatan 114%) nafar xorijiy turistlar, 3569,9 ming nafar mahalliy turistlar tashrifi kuzatilib, 184,7 mln. (yillik rejaga nisbatan 92,4%) AQSh dollari miqdorida turizm xizmatlari eksporti amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida sentabr oyida 147,8 ming, yil boshidan buyon jami 2016,3 ming nafar aholi ichki turizmga jalb etildi va 2024 yil uchun belgilangan yillik reja 92%ga bajarishga erishildi.

Bundan tashqari o‘tgan davr mobaynida jami 19 ta turoperator va turagentlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali 2024 yil uchun belgilab berilgan yillik reja 633% ga bajarildi. Shuningdek, hozirgi kunga qadar 121 o‘rinli 5 ta xostel (yillik rejaga nisbatan 125%), 9 o‘rinli 1 ta yotoqxona, 10 o‘rinli 1 ta oilaviy mehmonxona uyi hamda 161 o‘ringa ega 2 ta mehmonxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan bir qatorda 2024-yil davomida turizm sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha tasdiqlangan reja-grafik jadvaliga asosan 2024 yilning o‘tgan 9 oyi davomida 2300 ta yangi ish o‘rinlari yaratish belgilangan bo‘lib, mazkur reja 2380 taga yetkazildi va mazkur muddat uchun belgilangan reja 103,4% ga bajarildi.

2024 yilning yanvar-sentabr oylari davomida turizm infratuzilmasini yaxshilash, tashrif buyurgan xorijiy va mahalliy sayyohlarga yetarlicha shart-sharoitlar yaratish maqsadida 18 ta Wi-Fi nuqtalari hamda 19 ta turistik yo‘l belgilari o‘rnatilgan bo‘lsa, shahar va tumanlarda turizm xizmatlari ob’ektlarini ishga tushirish natijasida jami 45 ta sanitariya-gigiyena shahobchalarini qurish va qayta ta’mirlash orqali foydalanishga topshirildi.

O‘tgan davr mobaynida tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan jami 54 ta, shundan 3 ta turistlar uchun avtobus, 2 ta yo‘ltanlamas, 4 ta kvadrosikl, 3 ta mikroavtobus, 20 ta elektromobil, 20 ta shahar va tumanlarni bog‘lovchi avtobuslar va 2 ta boshqa turdagi transport vositalari (yillik rejaga nisbatan 225%) xizmati yo‘lga qo‘yilib, ularning umumiy soni 186 taga yetkazildi [3].

Bundan tashqari, Namangan viloyatining turizm salohiyati yuqori bo‘lgan Yangiqo‘rg‘on tumani Nanay qishlog‘iga 2024 yilning avgust oyida, Pop tumani Chodak qishlog‘iga sentabr oyida “Turizm qishlog‘i” maqomi berildi.

Viloyatdagi 2 ta oliy ta’lim muassasasida, ya’ni Namangan davlat universiteti hamda Namangan muhandislik-texnologiya institutlarida “Turizm va mehmondo‘stlik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Mazkur ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayanch OTM hisoblangan SamISI bilan kelishgan holda uch yillik oliy ta’lim dasturlari asosida o‘qishni yo‘lga qo‘yish hamda o‘quv jarayonini “blok-modul” tizimiga asoslangan dual ta’lim shaklida tashkil etilmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Namangan viloyati turizm boshqarmasi tomonidan viloyatda turizm sohasini rivojlantirish hamda turizm salohiyatini keng targ‘ib etish maqsadida sentabr oyida OAV vakillari, blogerlar, turoperatorlar, turizm sohasida faoliyat olib borayotgan boshqa korxonalar hamda budjet tashkilotlari vakillari ishtirokida Chodak qishlog‘ida infotur

tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda, alohida ta’kidlash lozimki, Namangan viloyatida 5 ta tumanlarning master-rejalarini ishlab chiqishga ham alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, Chust tumaniga “Proyekt Servis” MChJ, Yangiqo‘rg‘on tumaniga “Art dizayn loyiha” MChJ, Chortoq tumaniga "Kelajak-s" MChJ, Pop tumaniga "Ultra group" MChJ, Kosonsoy tumaniga "Uzgashkliti" DM loyihachi tashkilotlar biriktirildi. Kadastralar palatasi viloyat boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi hamda Turizm boshqarmasi mas’ullari bilan birgalikda yuqoridagi tumanlarning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlaridagi bo‘sh yer maydonlari aniqlanib, tumanlar hokimliklari va mutassaddi tashkilotlar bilan birgalikda master-rejalari ishlab chiqiladigan hududlar chegaralari belgilab olindi.

Bugungi kun holatiga Chust tumanidagi “Rezaksoy” suv ombori hududidan 56 gektar, Yangiqo‘rg‘on tumani, Nanay qishlog‘idagi “Qayroqi” MFY hududidan 94 gektar, Chortoq tumani “Chortoq” soy bo‘yi atroflaridan 20 gektar, Pop tumani “Guliston” m.f.y.dan 116 gektar, Kosonsoy tumanida “Olmazor” massividan 40 gektar yer maydonlari ishchi guruhi tomonidan borib o‘rganildi. O‘rganishlar to‘liq yakunlanib, yer maydonlari tanlab olindi va viloyat qurilish komissiyasi tomonidan tegishli xulosalar berildi. Hozirda loyihachilar tomonidan 5 ta tumanning master-rejalari konsepsiyasi hamda texnik topshiriqlari to‘liq ishlab chiqilib, yakunlandi va tegishli tashkilotlar bilan kelishildi.

Shuningdek, viloyat hokimligi bilan birgalikda 5 ta tuman kesimida turizm yo‘nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan yangi loyihalarning manzilli ro‘yxatlari, ularning har biriga kamida 50 million dollardan investitsiyalarni jalb qilish “paketi”i shakllantirilib, taqdimot tayyorlandi va boshqarmaning mas’ul xodimi tomonidan turizm qo‘mitasida himoya qilindi. Turizm qo‘mitasi tomonidan belgilangan mablag‘lar ajratilgach, master-rejalarni ishlab chiquvchilar bilan shartnoma tuziladi hamda belgilangan muddatlarga qadar master-rejalarni yakunlash choralari ko‘riladi.

Kelgusida mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish borasida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Respublikamizda turistik faoliyat sohasiga oid me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me’yorlar va standartlarni joriy etish;

2. Mamlakatimizning barcha hududlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

3. Transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;

4. Turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta’sirini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

5. Respublika ichida turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan turizm faoliyati sub’ektlarining faolligini rag‘batlantirishni ta’minlaydigan ichki turizmni rivojlantirish;

6. O‘zbekiston Respublikasi turistik mahsulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imidjini mustahkamlash;

7. Turizm sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va hokazo.

Yuqorida keltirilgan asosiy yo‘nalishlar kelgusida Respublikamizda turizm sohasinining rivojlanishiga hamda mamlakatimiz turizm salohiyatini yuksalishiga xizmat qiladi. Natijada mamlakatimiz aholisining turizm sohasida moddiy manfaatdorligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsyepsiyasi.
2. https://oriens.uz/media/conferencearticles/21
3. Namangan viloyati turizm boshqarmasi ma’lumotlari.